


Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019- yil 1- mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida Jizzax viloyatida 1052 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 410 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2470 ta (19,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 15213 tani tashkil etgan.












Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2405	2254	127
 Sanoat	2559	2448	188
 Qurilish	1525	1479	118
 Savdo	3289	3102	474
 Tashish va saqlash	548	523	18
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1050	996	42
 Axborot va aloqa	194	170	3
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	212	209	5
 Boshqa turlari	4184	4032	77



Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019- yilning 1-mart holatiga 15966 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 20,6 % savdo, 16,0 % sanoat, 15,1 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,6 % qurilish, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,4 % tashish va saqlash, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4909 ta), Sharof Rashidov (2616 ta), Zomin (1306 ta) va G'allaorol (1196 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yangiobod (344 ta), Zafarobod (442 ta) hamda Arnasoy (486 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar yillar kesimida soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **15213** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2470 ta (19,4 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,4 % savdo faoliyati, 16,1 % sanoat sohasi, 14,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 9,7 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,4 % tashish va saqlash sohasi, 1,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 1,1 % axborot va aloqa sohasi va 26,6 % esa boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Jizzax shahri (4685 ta), Sharof Rashidov (2555 ta), Zomin (1218 ta), G'allaorol (1193 ta) va Forish (1059 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Yangiobod (332 ta), Zafarobod (384 ta) hamda Arnasoy (486 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

01.03.2017 y.

• 11142 ta

01.03.2018 y.

• 12743 ta

01.03.2019 y.


• 15213 ta



Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-fevral oylarida 1052 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 63,9 % ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahri (339 ta), Sharof Rashidov (208 ta), Zomin (96 ta) va G'allaorol (67 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Zafarobod (17 ta), Yangiobod (19 ta) hamda Zarbdor (36 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (474 ta), sanoat (188 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (127 ta) va qurilish (118 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (3 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (5 ta) hamda tashish va saqlash (18 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
Jizzax viloyati bo'yicha jami	434	100	642	100	1052	100
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	62	33,3	57	17,4	58	8,7
Sanoat	39	21,0	45	13,8	99	14,9
Qurilish	69	15,9	76	11,8	474	45,1
Savdo	38	8,8	44	6,9	118	11,2
Tashish va saqlash	32	7,4	28	4,4	42	4,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	17	3,9	10	1,6	18	1,7
Axborot va aloqa	6	1,4	6	0,9	3	0,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	0,9	7	1,1	5	0,5
Boshqa turlari	35	8,0	247	38,4	77	7,2

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)






Tijorat korxonalari (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-mart holatiga Jizzax viloyatda 12186 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4046 ta, oilaviy korxonalar – 576 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 7232 ta va boshqalar shakldagilar 332 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining ulushi, % (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 139 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga yoki 61,6 % ga o'sgan. Ushbu korxanalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 96 tasi qo'shma korxonalar, 43 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahar (62 ta yoki jumladagi ulushi 44,6 %), Forish (13 ta yoki 9,4 %), Zomin (11 ta yoki 7,9 %), G'allaorol va Sharof Rashidov tumanlari (10 ta yoki 7,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirzacho'l (1 ta yoki 0,7 %), Arnasoy (2 ta yoki 1,4 %) va Zarbdor tumanlari (3 ta yoki 2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 78 tani (56,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 23 tani (16,5 %), savdoda 17 tani (12,2 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 5 tani (3,7 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqada 2 tani (1,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 tani (2,2 %), tashish va saqlashda 4 tani (2,9 %) va qurilishda 7 tani (5,0 %) tashkil

qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, axborot va aloqa hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 13 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 2 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Afg'oniston Respublikasi – 2 ta, Qozog'iston Respublikasi – 1 ta, Pokiston Islom Respublikasi – 1 ta va Quvayt davlati – 1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarning davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (6 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3 ta), qurilishda (2 ta), tashish va saqlashda (1 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar turlari (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi


	2018 yil yanvar-fevral oylarida		2019 yil yanvar-fevral oylarida	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %	Jami	Umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	2	33,3	6	46,2
Savdo	2	33,3	x	x
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1	16,7	3	23,1
Qurilish	1	16,7	2	15,3
Tashish va saqlash	x	x	1	7,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	x	x	1	7,7



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-mart holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 12146 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-mart holatiga qaraganda 23,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3984 tasi (32,8 %) Jizzax shahri, 2225 tasi (18,3 %) Sharof Rashidov, 931 tasi (7,7 %) G'allaorol hamda 911 tasi (7,5 %) Zomin tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 12146 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3093 tasi (25,5 %) – savdo, 2427 tasi (20,0 %) - sanoat, 2220 tasi (18,3 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1476 tasi (12,2 %) - qurilish, 994 tasi (8,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 520 tasi (4,3 %) - tashish va saqlash, 152 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, 139 tasi (1,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 1125 tasi (9,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.


Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-fevral oylarida 1009 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,3 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (329 ta), Sharof Rashidov (195 ta), Zomin (94 ta) va G'allaorol tumanlari (65 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Zafarobod (16 ta), Yangiobod (18 ta), Do'stlik va Zarbdor (33 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (474 ta), sanoatda (186 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (126 ta), qurilishda (118 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi (42 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (3 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (5 ta) hamda tashish va saqlashda (18 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 603 tani tashkil etib, ulardan 576 tasi yoki 95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 50,4 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,0 % yoki 242 tasi sanoat, 23,8 % yoki 137 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,1 % yoki 93 tasi qishloq, o'rmon va baliq

xo'jaligi, 10,8 % yoki 62 tasi savdo, 0,9 % yoki 5 tasi qurilish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash, 0,2 % yoki 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 5,7 % yoki 33 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.